

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SAMANDAROVA SADOQAT SOXIBJON QIZI

PUBLITSISTIK MATNLARDA EVFEMIK VA DISFEMIK IFODALAR

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences**

Samandarova Sadoqat Soxibjon qizi

Publitsistik matnlarda evfemik va disfemik ifodalar 3

Самандарова Садокат Сохибжон кизи

Эвфемические и дисфемические выражения в публицистических текстах .. 25

Samandarova Sadokat Soxibjon kizi

Euphemistic and dysphemistic expressions in journalistic texts 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SAMANDAROVA SADOQAT SOXIBJON QIZI

PUBLITSISTIK MATNLARDA EVFEMIK VA DISFEMIK IFODALAR

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/ Fil2406 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning (www.tai.uz) veb-sahifasiga va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Usmonova Shahodat Abdurahimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:


Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri Shahrizabz tor ko'chasi 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail:uztafi@academy.uz.)


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (14 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahri Ziyolilar ko'chasi 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" fevral da tarqatildi.
(2025-yil "16" fevral dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).




N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor


A.M. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)


D.S. Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida evfemik va disfemik ifodalar mavzusida izchil tadqiqotlar olib borilgan. Ularning sohalarga ixtisoslashuvi borasida ham bugungi kunga qadar izlanishlar davom etmoqda. Xususan, publitsistik matnlarda evfemik va disfemik ifodalarning namoyon bo'lishi axborot maydonining tobora kengayib borishi bilan yuzaga kelgan publitsistik manbalar o'rtasidagi raqobat sababli yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday raqobat muhitida, eng avvalo, matn ustida jiddiy tadqiqot olib borish medianing ravnaqiga, ularning mazmunan mukammallashishiga hissa qo'shadi. Tabiiyki, ayni jarayonda har bir OAV o'z mahsulotining ajralib turishiga alohida e'tibor qaratadi. Axborotning shakli matn, grafika, video, audio ko'rinishida bo'lgani kabi og'zaki yoki yozma matn har qanday axborotning asosini tashkil qiluvchi birlamchi vositadir. Shu jihatdan, publitsistik matnlarda qo'llanadigan evfemik va disfemik ifodalardan unumli va o'rinli foydalanish axborotning sifati va ommabopligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida publitsistik matnda quruq gap-so'zlar, balandparvoz xabarlar, turli tadbirlar haqidagi axborot o'quvchida qiziqish uyg'otmasligi borasida ko'plab ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida ochiqlik, shaffoflik tamoyillarining ustunligi, koronavirus pandemiyasi davrida internet jurnalistikasi jadal rivojlangani sababli shov-shuvli, keskin tanqidiy publitsistik materiallar miqdori ko'paydi. Bu esa OAVda mavzularni yoritishda evfemik va disfemik birliklardan foydalanish an'analarga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Zero, publitsistik matn orqali omma dunyoqarashi shakllanadi va uning sifatlil, mazmunli matnlarga tayangani har qanday tamoyillardan ustun turishi kerak.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'zbek tili va uning taraqqiyotiga nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy masala sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2019-yildan buyon bu borada salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹ qabul qilinib, "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingan kunning ulkan tarixiy o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, 21-oktyabr sanasi yurtimizda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi. Ayni jarayon ta'sirida tilshunoslikda zamonaviy fundamental tadqiqotlar sonini oshirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, evfemik va disfemik ifodalarning badiiy, genderga xos matnlar, tibbiy matnlarda qo'llanishi doirasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, publitsistik matnlardan foydalanish maqsad va vazifalari, ahamiyatiga oid ishlarga talab dolzarb bo'lib qolmoqda. Zotan, ushbu mavzu tilshunoslikning sotsiologiya, mediailshunoslik, lingvomataniyatshunoslik, pragmatologiya kabi yo'nalishlari rivojida o'zbek tilining keng imkoniyatlarini yana bir marta namoyon qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. (Manba: lex.uz/docs/5058351.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlari va 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos holda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Evfemiya va disfemiya mavzusi adabiyot, estetika, madaniyatshunoslik kabi sohalarining tadqiq doirasiga o‘rta asrlardan kirib kelgani haqida ma’lumotlar mavjud. Tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida ham ayni hodisalar monografik tadqiqot obyekti bo‘lgan. Masalan, dunyo tilshunosligida B.A.Larin, S.Vidlak, J.Lawrence, A.N.Katsev, S.Luchtenberg, V.I.Zabotkina, K.Allan, K.Burridge, B.Warren, V.I.Jelvis, N.Zöllner, Y.I.Sheygal, V.P.Moskvin, U.Giezek, M.S.McGlone va J.A.Batchelor, L.V.Poroxnitskaya² ishlarida mavzuning nazariy asoslari tadqiq etilgan bo‘lsa,

² Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ученые записки ЛГУ: сер. филол. наук. – Вып. 60. – № 301. – Л., 1961; Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля // Этимология – М.: Наука, 1965; Lawrence J. Unmentionables and other euphemisms – L.: Gentry books, 1973; Кацев А.Н. Эвфемизмы в современном английском языке (опыт социолингвистического описания): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: – Л., 1977; Luchtenberg S. Euphemismen im heutigen Deutsch: Mit einem Beitr. zu Deutsch als Fremdsprache / Sigrid Luchtenberg. – F.: Lang., 1985; Заботкина В. Новая лексика современного английского языка: Учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1989; Allan K., Burridge K. Euphemism and dysphemism: Language used as shield or weapon / K. Allan, K. Burridge. – L.: Oxford university press, 1991; Warren B. What euphemisms tell us about the interpretation of words // Studia Linguistica (A journal of General Linguistics). — Vol. 46, № 2. – Scandinavian University Press, 1992; Жельвис В.И. Психоллингвистическая интерпретация инвективного воздействия: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук: – М., 1992; Zollner N. Der Euphemismus im alltäglichen und politischen Sprachgebrauch des Englischen. Europäischer Verlag der Wissenschaften. – F., 1997; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса: Монография – Институт языкознания РАН; Волгогр. гос. пед. ун-т.: Перемена, 2000; Москвин В.П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. – М., 2001; Giezek U. Euphemisms and euphemization from the perspective of cognitive linguistics // Acta universitatis Wratislaviensis. – W., 2002; McGlone M.S., Batchelor J.A. Looking out for number one: euphemism and face // Journal of communication. Vol. 53 № 2. – W.: Oxford university press, 2003; Порохницкая Л.В. Культурологические и когнитивные принципы эвфемии в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 2004.

N.D.Arutyunova, G.N.Leech, I.P.Susov, E.S.Aznaurova, P.Brown tadqiqotlarida pragmalingvistik tahlillar uchraydi³. V.G.Kostomarov, V.L.Nayer, T.V.Yudina, T.G.Dobrosklonskaya, G.Y.Solganik, I.R.Jeltuxina, va T.V.Boyko singari olimlar gazeta matnlarida evfemik va disfemik ifodalarning ishlatilishiga taalluqli izlanishlar olib borgan⁴.

O‘zbek tilshunosligida ham evfemizm mavzusi o‘rganilgan. Manbalarda o‘tgan asrning 60-yillarida N.Ismatullayev tomonidan himoya qilingan “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar” dissertatsiyasi dastlabki tadqiqot sifatida qayd etiladi⁵. Keyingi tadqiqot A.Omonturdiyevning etnolingvistik aspektidagi “Professional nutq evfemikasi” nomli dissertatsiyasidir⁶. A.Hojiyevning 1985-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da ham evfemizmga izoh beriladi. Biroq lug‘atda disfemizmga doir fikr bildirilmaydi⁷.

So‘nggi yillarda X.Qodirovaning “Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati”, Sh.Shamsiyevaning “Xitoy va o‘zbek tillarida maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi”, Sh.Gulyamovaning “O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari” dissertatsiyalari yuzaga keldi⁸.

Ta’kidlash lozimki, evfemizm xususida tilshunos olimlar yo‘l-yo‘lakay ham fikrlar bildirib, unga turli tomondan yondashganlar. Masalan, H.Shamsiddinov so‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari haqida fikr-mulohazalar bildirsa⁹, A.E.Mamatov doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to‘xtaladi¹⁰. Shuningdek, badiiy til bilan bog‘liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma’nosiga e’tibor qaratiladi. Jumladan, Z.Xolmanova “Boburnoma”da qo‘llangan evfemizmlar xususida ayrim fikrlarni bayon etgan¹¹.

³ Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Изв. АН СССР, Сер. лит. и яз. – М., 1981; Leech G.N. Principles of pragmatics – L.: Longman, 1983; Сусов И.П. Коммуникативно-прагматическая лингвистика и её единицы / Прагматика и семантика синтаксических единиц. – Калининск: Калининск. гос. ун-т, 1984; Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова: Монография – Ташкент: Фан, 1988; Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage I P. Brown, S. Levinson – С.: Cambridge University Press, 1987.

⁴ Костомаров В.Г. Некоторые особенности языка печати как средство массовой коммуникации: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1969; Наер В.Л. Конспект лекций по стилистике английского языка: Спецкурс «Язык английской газеты как функциональный стиль». – М., МГПИИЯ им. Мориса Тореза, 1976; Юдина Т.В. Категория напряжённости и средства её выражения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / ЛГПИ им. А.И. Герцена. – Л., 1990; Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов (опыт исследования современной английской медиа речи) – М.: Диалог – МГУ: МАКС – пресс, 2000; Солганик Г.Я. О закономерностях развития языка газеты в XX веке // Вестник МГУ. – Сер. 10: Журналистика. – М., 2002; Желтухина М.Р. Тропологическая суггестивность масс-медиального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ. – М., 2003; Бойко Т. Эвфемизмы и дисфемизмы в газетных текстах: Дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2005.

⁵ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.

⁶ Омонтурдиев А. Профессионал нутк эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006.

⁷ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 146.

⁸ Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Бухоро, 2019; Шамсиева Ш. Хитой ва ўзбек тилларида маиший эвфемизмларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020.

⁹ Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997, 6-сон.

¹⁰ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1999.

¹¹ Холманова З. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

Izlanishlar natijasida o‘zbek tilshunosligida disfemizm mavzusidagi ishlar salmog‘i evfemizmlarning tadqiqiga qaraganda kamligi kuzatildi. Shuningdek, publitsistik matnlardagi evfemik va disfemik birliklarning tadqiqiga oid ishlar deyarli mavjud emasligi aniqlandi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbekcha publitsistik matnlardagi evfemik va disfemik ifodalarning lisoniy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda evfemiya va disfemiya hodisalarining tadqiqini tahlil qilish;
publitsistik matnda evfemik va disfemik ifodalarning qo‘llanish maqsadini aniqlash;

publitsistik matnlarga xos evfemik ifodalarning madaniy muloqotni shakllantirish, dag‘al ifodani yumshatish vazifasini asoslash;

publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning manipulyativ vazifada qo‘llanishini dalillash;

publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning estetik vazifada qo‘llanishini aniqlash;

publitsistik matnlarda disfemik ifodalardan diqqatni jalb qilish maqsadida foydalanishning o‘ziga xosliklarini asoslash;

publitsistik matnlarda disfemik ifodalardan manipulyativ maqsadda foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;

publitsistik matnlarda disfemik turg‘un birliklarning ekspressiv vazifa bajarishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2010–2024-yillarda OAVda e‘lon qilingan o‘zbek tili publitsistik matnlarida qo‘llangan evfemik va disfemik ifodalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili publitsistik matnlaridagi evfemik va disfemik ifodalarning lisoniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, etimologik, diaxron, tasniflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek publitsistik matnlarida ijtimoiy-siyosiy mazmunli evfemik va disfemik ifodalarning lisoniy xususiyatlari ochib berilgan;

o‘zbek publitsistik matnlariga xos evfemik ifodalarning madaniy muloqotni shakllantirishi, dag‘al ifodani yumshatishi va estetik vazifalarda qo‘llanishi aniqlangan;

o‘zbek publitsistik matnlarida evfemik va disfemik ifodalarning o‘quvchi ongiga manipulyativ ta’siri asoslangan;

o‘zbek publitsistik matnlarida evfemik va disfemik turg‘un birliklarning ekspressiv vazifa bajarishdagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

o‘zbek publitsistik matnlarida evfemik va disfemik ifodalarning ijobiy va

salbiy taassurot qoldirish, diqqatni tortish, OAV tilini yanada bo‘yoqdor qilish maqsadida qo‘llanishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tanlangan muammoning aniq qo‘yilganligi, to‘plangan materiallardan tahlil orqali asosli ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, publitsistik matnlarda qo‘llangan evfemik va disfemik ifodalar tahlilining ilmiy-nazariy metodlar vositasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidagi publitsistik matnlarda qo‘llanadigan evfemik va disfemik ifodalar bo‘yicha to‘plangan materiallar, ularning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, mediatilshunoslik uchun muhim zaruriy, ilmiy ma‘lumot berishi hamda bu yo‘nalishga doir tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

publitsistik matnlarda qo‘llanadigan evfemik va disfemik ifodalarning qanday ta’sir kuchiga ega ekanligi tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarga ta’siri aniqlangan;

bu izlanishlar tilshunoslik nazariyalariga yangi g‘oyalar qo‘shib, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilidagi publitsistik matnlarda qo‘llanadigan evfemik va disfemik ifodalarning lisoniy, lingvomadaniy, sotsiolingvistik xususiyatlariga doir mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni boyitganligi hamda antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlarida evfemik va disfemik ma’noli birliklarga doir ilmiy izlanishlarda ilmiy manba vazifasini o‘tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Nutq madaniyati”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Sotsiolingvistika”, “Mediatilshunoslik” kabi tanlangan maxsus kurslar o‘tishda; ushbu maxsus kurslarga oid darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy risolalar tayyorlashda, o‘zbek tili evfemizm va disfemizmlari lug‘atini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Publitsistik matnlarda evfemik va disfemik ifodalar mavzusidagi tadqiqot bo‘yicha olingan natijalar asosida:

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-78 raqamli “Hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o‘zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida globallashuv davrida publitsistik matnlarning o‘ziga xosligi, kommunikativ, ekspressiv, estetik vazifasi, mavzularga ixtisoslashuv jarayonida o‘zbek tilining sotsial imkoniyatlaridan samarali foydalanishga oid qarashlaridan; lingvomadaniyatshunoslik, media tili sohalarida til vositalarining qo‘llanishiga oid tahlillardan loyihaning “Globallashuv davri publitsistikasi tilining taraqqiyoti” bo‘limida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 14-dekabrda 3/1255-2784-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha zamonaviy o‘zbek tilshunosligidagi yangilanishlar, media tili tushunchalari bilan to‘ldirilishida tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o‘tadi.

Shuningdek, 2021–2022-yillarda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan IL-21071156 raqamli “Antropotsentrik tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati”ni tuzish va nashr qilish (veb-sayti va mobil ilovasini yaratish)” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida publitsistik matnlarda qo‘llanadigan evfemik va disfemik ifodalarning sotsial, lingvokulturologik, kommunikativ, manipulyativ va ekspressivlik vazifalarini dalillaydigan qarashlar; ijtimoiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy mavzularda foydalaniladigan evfemik va disfemik ifodalarning publitsistik matn talablariga mos ravishda qo‘llanishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlaridan, publitsistik matnlarga xos evfemik va disfemik ifodalarning qo‘llanish maqsad va vazifalari, dunyo va milliy tilshunosligimiz o‘rtasidagi qiyosiy jihatlarining ilmiy-nazariy asoslari kabi masalalaridan loyiha doirasida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 14-dekabrda 3/1255-2784-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha zamonaviy o‘zbek tilshunosligidagi yangilanishlar, sotsiolingvistika tushunchalari bilan to‘ldirilishida tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o‘tadi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanalining “Yoshlar bilan...” muloqot dasturida publitsistik matnlarda qo‘llanadigan evfemik va disfemik ifodalar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan nazariy va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, ularning adabiy til leksik tizimida mavjud mushtarak jihatlarining o‘rganilishi natijasida olingan fikr va xulosalardan foydalanildi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanalining 2024-yil 26-noyabrda 14-05-23-sonli ma‘lumotnomasi). Jumladan, ushbu dasturda siyosiy-ijtimoiy informatsiyalarni tinglovchilarga ta‘sirchan usulda yetkazishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til vositalari – evfemik va disfemik ifodalar haqida ma‘lumotlar berilgan. Bundan tashqari, mazkur dasturning turli sonlarini tayyorlashda suhbatdoshlarga muloqotning ta‘sirchanligini oshirishga, tinglovchilar diqqatini jalb qilishga, suhbat tilining xalqchil va ifodaviy bo‘lishiga yordam beradigan uslublar haqida tavsiyalar berib borilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda nashr etildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning joriylanishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tilshunoslikda evfemiya va disfemiya hodisalari tadqiqi**" deb nomlangan. Ushbu bobda **evfemizm va disfemizm** atamalariga ta'rif berilib, mazkur birliklarning yuzaga kelish bosqichlari, ularning tasnifi, evfemizmga oid lug'atlar tarixi o'rganildi, ular bilan bog'liq xorijiy va milliy tadqiqotchilarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi.

Birinchi bobning "*G'arb tilshunosligida evfemik va disfemik ifodalarning o'rganilishi*" deb nomlangan faslida evfemik va disfemik ifodalarning g'arb tilshunosligidagi o'rganilishi haqida so'z yuritiladi.

Evfemizm atamasi yunoncha "euphemismos" – "yaxshi gapiraman" so'zidan hosil bo'lgan. Evfemiya lingvistik atama sifatida qo'llana boshlagach, ayrim manbalarda "yaxshilik va'da qiladigan so'z" ma'nosida ham izohlangan¹².

Demak, evfemiya ma'lum bir hodisa, vaziyat haqidagi qo'pol, dag'al tushunchani "yumshatilgan" holda ifodalovchi nutq hodisasi sanaladi. Masalan, aytilishi, eshitalishi qo'pol yoki ma'lum bir vaziyatlarda uyat sanalgan *ikkiqat* so'zini *homilador*, *og'iroyoq*, *yukli* so'zlari yoki *farzand kutayotgan* birikmasi bilan almashtirib qo'llash evfemiya hodisasini namoyon qiladi. Evfemiya hodisasi lisoniy birliklar – evfemizmlar orqali yuzaga chiqadi.

Evfemizm atama sifatida g'arb tilshunosligida ilk bor XVII asrning o'rtalaridagi lug'atlarda uchraydi. 1656-yilda Tomas Blountning "Glossografia: yoki bizning nozik ingliz tilimizda ishlatiladigan har qanday tildagi barcha qattiq so'zlarni sharhlovchi lug'at"i nashr etildi. Unda evfemizmga "yomon so'zning yaxshi yoki ijobiy talqini" deya tavsif berilgan¹³.

Evfemiyaga zid tabiatli hodisa esa disfemiya deb nomlangan. Disfemizm (qadimgi yunon tilidan δυσφήμη – "yomon nutq") nutqda ma'lum maqsadda ishlatiladigan qo'pol, ijtimoiy chegaralangan so'z va birikmalarni umumlashtiradigan atamadir. Tilshunoslikda alohida tushuncha sifatida XIX asrdan o'rganila boshlangan. Ba'zi tilshunoslar disfemizmni "malfemizm" va "kakofemizm"ning sinonimi deb biladilar. Bu xulosaga kelishda ularning lug'aviy mazmunining o'xshashligi sabab bo'lgan. Ya'ni kakofemizm ham disfemizm singari (yunoncha κακός – yomon, dag'al, yoqimsiz va φημία (phemia), φήμη

¹² Эвфемизм / <https://ru.wikipedia.org/wiki/Эвфемизм>

¹³ Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue – L.: Tbo, Newcomb, 1656. – P. 224. Elektron manba: https://archive.org/details/bim_early-english-books-1641-1700_glossographia-or-a-dict-blount-thomas_1659/page/n1/mode/2up

(pheme) – nutq) yomon gapiraman ma'nosini anglatadi¹⁴. Disfemiya hodisasi haqidagi ma'lumotlar S.Vidlak, V.Jelvis, A.Katsev, Y.Sheygal, K.Allan, U.Giezek¹⁵ kabi yevropalik olimlarning ishlarida uchraydi.

Bobning ikkinchi fasli “*Rus tilshunosligida evfemik va disfemik ifodalarning o'rganilishi*” deb nomlangan. Rus tilshunosligida evfemizmlar haqida dastlabki ma'lumotlar XX asrning o'rtalaridagi manbalarda uchraydi. 1935–1940-yillarda chop etilgan D.N.Ushakovning “Rus tilining izohli lug'ati”da evfemizmgga shunday ta'rif berilgan: “Evfemizm (*yun.* *eeuphemeo* – muloyim gapiraman) (*ling.*) – ma'lum bir vaziyatda o'z nomi bilan atash noqulay, axloqqa zid va yoqimsiz bo'lgan narsa yoki hodisani bilvosita, yashirin tarzda nomlash uchun ishlatiladigan so'z (yoki ifoda). Masalan, “homilador” o'rniga *qiziqarli holatda*; “agar bemor o'lmasa...” o'rniga *bemorga hech narsa bo'lmasa...* kabi”¹⁶.

B.A.Larinning “Tilshunoslik muammolari” to'plamida nashr etilgan “Evfemizmlar haqida”gi maqolasi esa bu tur birliklar bo'yicha to'liqroq ma'lumot beradigan dastlabki tadqiqotlardan biri¹⁷. Olimning fikrlari ushbu birliklarning miqyosini belgilab berish va yangi ilmiy mulohazalarning, munozaralarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Xususan, trop va evfemizm o'rtasidagi munosabat, ularning aniq chegaralarini belgilash kabilar haqidagi bahslar ko'paydi. Bizningcha, trop va evfemizm tushunchalari bir-biridan vazifasiga ko'ra farqlanishi lozim. Troplar nutqni boyitish, ifodaviylik va obrazlilikni oshirish uchun qo'llanadi. Masalan, “Dunyo sahnasi” (bu o'rinda “sahna” metaforasi dunyo uchun qo'llangan). Evfemizmning vazifasi esa yoqimsiz yoki noqulay bo'lgan so'z yoki iborani yumshoqroq, neytralroq shaklda almashtirishdir. Evfemizmlar, odatda, ijtimoiy noqulay, qo'pol yoki taqiqlangan tushunchalarni yumshoq shaklda ifodalash uchun ishlatiladi. Trop orqali asosan nutqning estetik, obrazlilik tomoniga e'tibor berilsa, evfemik ifoda qo'llanishi bilan dag'al tushuncha madaniy muloqot talabiga moslashtiriladi.

Rus tilshunosligida hozirgi bosqichga kelib evfemizmlar quyidagicha nuqtayi nazardan tadqiq qilinmoqda:

1) sotsiolingvistik aspektida (G.A.Vildanova¹⁸, Y.O.Miloyenko¹⁹ va boshqalarning ishlari);

¹⁴ Kakofemizm / <http://ru.wiktionary.org/wiki/Shablon:etimologiya:kakofemizm>.

¹⁵ Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля // *Этимология* – М.: Наука, 1965; Жельвис В.И. Психолингвистическая интерпретация инвективного воздействия: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Российская академия наук. Институт языкознания – М., 1992; Кацев А.Н. Эвфемизмы в современном английском языке (опыт социолингвистического описания): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Ленинг. гос. пед. ин-т им. А.И.Герцена – Л., 1977; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса: Монография / Институт языкознания РАН; Волгогр. гос. пед. ун-т. – Волгоград: Перемена, 2000; Allan K., Burrige K. *Euphemism and dysphemism: Language used as shield or weapon* – L.: Oxford university press, 1991; Giezek U. *Euphemisms and euphemization from the perspective of cognitive linguistics* // *Acta universitatis Wratislaviensis*. – Wroclaw: Anglica Wratislaviensia, 2002.

¹⁶ Эвфемизм // Толковый словарь Ушакова URL:<http://dic.academic.ru/dic.nsf/ushakov/1095558>

¹⁷ Ларин Б. А. Об эвфемизмах / *Проблемы языкознания: Сб. ст.* – Л., 1977. – С. 101-114. (https://bibliolex-iling.spb.ru/sites/default/files/2021-11/Larin_1977%D0%B2.pdf)

¹⁸ Вильданова Г. *Эвфемизмы и их социальная функция*. – М.: Наука, 2010.

¹⁹ Милоенко Е. *Социолингвистический аспект эвфемизмов в современном русском языке*. – СПб.: Петербургское восточное издательство, 2012.

2) lingvokulturologik aspektida (N.V.Tishina²⁰, L.V.Poroxnitskaya²¹ va boshqalarning tadqiqotlari);

3) kognitiv tilshunoslik aspektida (N.V.Tereshchenko²², O.S.Sidendambayeva²³ va boshqalarning dissertatsiyalari);

4) lingvopragmatik jihatdan (Y.V.Kipskaya²⁴, L.V.Savvateyeva²⁵ va boshqalarning izlanishlari).

Antrpotsentrik xarakterdagi mazkur tadqiqotlar evfemiya bo'yicha avval diqqat qaratilmagan o'rinlarni ochib berish, mazkur hodisaning lisoniy tabiatini tugal tavsiflash bilan birga, shu evfemizm mansub bo'lgan til egalarining olam hodisalarini ko'rish tarzlarini ham ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Disfemiya hodisasi va uning voqelanish shakli bo'lgan disfemizmlar ham rus tilshunosligida ancha avval o'rganila boshlangan. Bu borada maqola shaklidagi izlanishlardan tortib monografik tadqiqotlargacha bajarilgan. B.A.Larin, L.P.Krisin, T.A.Ostrovskaya kabi tilshunoslarning talqinida bu hodisaning mohiyati asosan evfemiyaga qarama-qarshi hodisa sifatida tushuntiriladi va bu bilan disfemiyaning ma'nosi ancha sodda izohlanadi. Bundan tashqari, A.N.Rezanova, T.N.Abakova, T.S.Bushuyevalarning tadqiqoti disfemizmlarning semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan. R.A.Oganesyan, I.V.Yakovleva, A.N.Pyagayev, M.S.Pestovalarning ishlarida esa disfemik ifodalarning alohida jihatlariga e'tibor qaratilgan²⁶.

Bobning uchinchi fasli "*O'zbek tilshunosligida evfemik va disfemik ifodalarning o'rganilishi*" deb nomlangan. O'zbek tilshunosligida evfemiya o'tgan asrning 2-yarmidan keyin o'rganildi. Xususan, XX asrning 60-yillarida mazkur mavzuni o'rgangan ilk o'zbek olimi sifatida N.Ismatullayev ta'kidlanadi. "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar" deb nomlangan ushbu dissertatsiyada evfemizmlar 5 turga bo'lib tasnif va tavsif qilingan²⁷. Bular:

1) tabu bilan bog'liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning bir-birlari nomlarini aytmasliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar);

2) bid'at, irim bilan bog'liq evfemizmlar;

3) ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar;

4) nutqiy bezamalik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar;

²⁰ Тишина Н. Эвфемизмы в контексте культурных изменений. – М.: РГГУ, 2011.

²¹ Порохницкая Л. Эвфемизмы и культура речи. – СПб.: Наука, 2013.

²² Терещенко Н. Когнитивные аспекты эвфемизмов. – М.: Наука, 2009.

²³ Цыдендамбаева О. Эвфемизмы в когнитивном и культурном контексте. – Иркутск: Иркутский государственный университет, 2014.

²⁴ Кипская Е. Прагматика эвфемизмов в современных текстах. – М.: Наука, 2008.

²⁵ Савватеева Л. Прагматика и семантика эвфемизмов. – СПб.: РГГУ, 2010.

²⁶ Резанова А. Семантика и прагматика дисфемизмов. – М.: Наука, 2008; Абакова Т. Дисфемизмы и их прагматическая функция. – СПб.: Петербургское восточное издательство, 2010; Бушуева Т. Дисфемизмы в контексте речевой практики. – М.: РГГУ, 2012; Оганесян Р. Особенности дисфемии в современном русском языке. – М.: Наука, 2009; Яковлева И. Дисфемии и их культурные аспекты. – СПб.: Наука, 2011; Пягаев А. Аспекты дисфемии в текстах и речевой практике. – М.: Флинта, 2013; Пестова М. Функции дисфемии в коммуникации. – СПб.: РГГУ, 2014.

²⁷ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.

5) stilistik evfemizmlar²⁸.

Ko‘rinib turibdiki, olim o‘z ishida evfemizmlarni xalqning turmush tarzi, madaniyati doirasida tasniflagan. Bizningcha, bunday guruhlanish evfemiya hodisasining yuzaga kelish sabablarini aniqlashda muhim.

Mazkur hodisani A.Omonturdiyev ham o‘rgangan va o‘zbek nutqining evfemik asoslarini belgilab bergan edi²⁹. Keyinroq “O‘zbek tili stilistikasi” o‘quv qo‘llanmasida mualliflar jamoasi tomonidan evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma‘lumotlar berilgan. Ushbu manbada evfemizm aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z yoki ibora o‘rnida ishlatiladigan “pardali” so‘z yoki ibora sifatida ta‘riflanadi. Xususan, badiiy adabiyotda evfemizmlarning ahamiyati haqida so‘z borar ekan, ular aytilishi uyatli, noqulay va noxush vaziyatlarni izohlashda yagona stilistik vosita sifatida ishlatilishi, qolaversa, badiiy asarda obraz va personajlarning maqsadi, dunyoqarashi va saviyasini ifodalashdek muayyan stilistik vazifani bajarishi ta‘kidlangan³⁰.

Disfemiya hodisasi milliy tilshunosligimizda evfemiyaga nisbatan kam tadqiq qilingan. Bunga sabab tilshunoslar uni madaniyatsizlik targ‘ibotiga xizmat qiluvchi omil sifatida baholagani, deb qayd etiladi: “Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘laroq, kam o‘rganilgan. Buning sababini esa, yuqorida aytilganidek, madaniy muloqot me‘yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtayi nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan”³¹.

O‘zbek tilshunosligidagi disfemik ifodalar bo‘yicha tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Masalan, “O‘zbek tili stilistikasi”da qo‘pol va dag‘al shaklda qo‘llanadigan so‘z va iboralar *kakofemizm* deyilgan; “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida bunga e‘tiroz bildirgan holda disfemizm tropning bir ko‘rinishi hisoblanishi, trop biror tushuncha, muayyan so‘zning hosila ma‘nosi sifatida ifoda topishi aytiladi va A.Shomaqsudov keltirgan misol, garchi dag‘al ifoda bergan bo‘lsa-da, trop emas, parafrazalar deb baholanadi³².

Abdulla Qodiriy ijodidagi evfemik va disfemik ifodalarni o‘rgangan X.Qodirova bu borada “...kakofemizm o‘z ichiga qo‘pol ifodalarning barchasini oladi, disfemizm esa uning bir ko‘rinishi sifatida qaralishi kerak”, deydi. Tadqiqotda “...ular turli tillarga xos terminlar ekanligi ham e‘tiborga molik”, deya bu masalaga xulosa yasalgan³³.

²⁸ Исмаатуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – В. 38.

²⁹ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемистик ҳодисаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997.

³⁰ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 148.

³¹ Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – В. 32-33.

³² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 129.

³³ Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 38.

Disfemizm va kakofemizmlar yuzasidan fikr yuritgan Y.Odilovning “O‘zbek tilida enantiosemiya” nomli doktorlik ishida: “Bizningcha, A.Shomaqsudov keltirgan kakofemizmlarni disfemik ifoda hisoblash to‘g‘ri, ularni disfemizmlar sirasiga kiritish lozim. Bu quyidagilarda ko‘rinadi: kakofemizm tildagi barcha qo‘pol so‘z va frazeologizmlarga daxldor bo‘lib, fikrni disfemik yo‘l bilan ifodalashga xizmat qiladi; kakofemizm ham, disfemizm ham biror tushunchani dag‘al tarzda ifodalaydi; ular sinonim terminlar”, deyiladi³⁴.

Umuman olganda, mavjud yondashuvlar *kakofemizm* va *disfemizmlar* o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni tushunishda ularning ahamiyatini aniqlashda o‘ziga xos qo‘shimcha xulosalar beradi. Bizningcha, kakofemizm va disfemizmni bitta tushuncha sifatida qarash mumkin.

Dissertatsiyaning “**Publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning namoyon bo‘lishi va vazifalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida publitsistik matnlarga xos evfemizmlarning qo‘llanish vazifalari tadqiq qilinadi. “*Publitsistik matnlardagi evfemik ifodalarda nutq madaniyligini ta‘minlash vazifasining yuzaga chiqishi*” masalasiga bag‘ishlangan birinchi faslda evfemik ifodalarning madaniy muloqotni shakllantirish, mazmuni yumshatish vazifalari haqida so‘z yuritiladi.

Ma‘lumki, publitsistik matn ommaga mo‘ljallanganligi sababli ayrim tushunchalar ochiq-oydin ifodalanmay, biroz yashirin yoki pardalangan tarzda beriladi. Mustaqillik yillarida milliy ommaviy axborot vositalarida bir necha tushunchalar ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra atayin evfemiklashtirildi. Masalan, o‘zbek tilida odamning jismoniy kamchiliklarini anglatuvchi *cho‘loq*, *ko‘r*, *kar*, *soqov* kabi tushunchalar bor. Bugungi kun o‘zbek sotsial madaniyati uchun bu tushunchalarni publitsistik matnlarda ommaga ochiqcha bayon qilish bir qadar madaniylik talabiga rioya qilinmaganlikdek tuyuladi. Xususan, shaxsni ommaga “ko‘r” deb taqdim qilishni o‘zbek ijtimoiy madaniyati dag‘al deb baholagani uchun milliy publitsistikada bu so‘z *ko‘rish bilan nuqsoni bor*, *ko‘rishda nuqsonli* deb evfemiklashtirilgan. Xuddi shunga o‘xshash “kar” tushunchasi *eshitish bilan nuqsoni bor*, *eshitishda nuqsonli tarzida* “soqov”, “cho‘loq” kabi tushunchalar esa *jismoniy imkoniyati cheklangan* birikmasi yordamida evfemiklashtirilgan. Bizningcha, ushbu evfemik ifodalar ichida *ko‘rish bilan nuqsoni bor*, *eshitish bilan nuqsoni bor* birliklarida uslubiy g‘alizlik seziladi. Shu nuqtayi nazardan ularni *ko‘rishda*, *eshitishda nuqsoni bor* shaklida qo‘llagan maqbul.

Dunyo miqyosida asli afrikalik va Amerika fuqarosi sanaladigan kishilar *afroamerikalik* deyilmoqda va bu so‘z evfemik maqsadda qo‘llanadi. Bu evfemizm “negr” degan ma‘noni yumshoqroq, bu xalqlarni hurmatlagan holda ifodalaydi. *Negr* so‘zi aslida irq nomi sanalsa-da, bugungi kunda ijtimoiy haqoratni anglatadi va ko‘plab mamlakatlarda bu so‘zni ishlatish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi³⁵. O‘zbekistonda “negr” so‘zining ishlatilishi haqorat hisoblanishi vaziyat va kontekstga bog‘liq. Qonunchilik nuqtayi nazaridan, bu so‘zdan foydalanish uchun alohida jazo belgilanmagan bo‘lsa-da, publitsistik matnlarda disfemik xarakterli ekanligi anglandi va qo‘llanishdan qoldi. Publitsistik matnlarda bunday so‘zlarni

³⁴ Одилов Ё. Ўзбек тилида энантиосемиа: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 69.

³⁵ <https://www.archives.gov/milestone-documents/civil-rights-act>

ishlatishda jamiyatda global madaniyatga uyg'unlashish jarayoni davom etayotganini inobatga olgan holda, negr so'zi o'rnida afroamerikalik so'zini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Demak, evfemik ifodalar ko'pincha jamiyatdagi umumiy, ijtimoiy, madaniy, etik o'zgarishlarga qarab yuzaga kelar ekan.

O'zbekcha publitsistik matnlarda *ehtiyomand*, *kam ta'minlangan*, *ijtimoiy himoyaga muhtoj* kabi faol evfemik ifodalar mavjud. O'zbek o'quvchisi bu birikmalarning xalq tilida uchraydigan *kambag'al*, ba'zan *qashshoq* tushunchalarini ifodalashini biladi, lekin zamon talabi bilan shunday ifoda shakllandi. Chunki mustaqillikdan keyingi birinchi hukumat davrining so'nggi 5-10 yilligida publitsistik matnlarda *qashshoq* va *kambag'al* so'zlari deyarli qo'llanmadi. Uning o'rnida *kam ta'minlangan*, *ijtimoiy himoyaga muhtoj*, keyinchalik *ehtiyomand* evfemik ifodalaridan foydalanildi. Vaqt o'tgani sari semantikasidagi dag'allik yoki sotsiomadaniy normaga nomuvofiqlik belgisining yuzaga chiqib qolishi yana qayta evfemizatsiyaga turtki berdi. Zikr etilgan omillar sababli so'nggi yillarda publitsistik matnlarda *ka'm ta'minlangan* birikmasi o'rnida *ehtiyomand* evfemik ifodasi qo'llash faollasha boshladi. Garchi *kam ta'minlangan*, *ehtiyomand* birliklari *kambag'al* yoki *qashshoq* ma'nosini aynan to'liq ifodalama-da, mazmunni yumshatib, nutq madaniyligini ta'minlashga xizmat qiladi. "***Ehtiyomand*** insonlarga 6 ta nogironlik aravachasi, 10 ta qo'ltiqayoq, 10 ta eshitish apparati sovg'a qilindi"³⁶.

Demak, publitsistik matnlarda qo'llanib kelgan evfemik ifodalar yillar o'tgani sari eskiradi va ularning o'zini ham qayta evfemiklashtirish zarur bo'ladi. "Aqli zaif" tushunchasini bu holatga misol qilib keltirish mumkin. Masalan, "aqli zaif bolalar" dastavval *aqliy imkoniyati cheklangan bolalar* deb evfemiklashtirilgan bo'lsa, bugungi publitsistik matnlarda *alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar* tarzida uchramoqda: "***Keyingi o'quv yilida alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda***"³⁷.

Bobning ikkinchi fasli "*Publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning manipulyativ vazifada qo'llanishi*" deb nomlanib, unda publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning axborotni, asl vaziyatni yashirgan yoki o'zgartirgan holda taqdim etishga xizmat qilishi tahlili beriladi. Manipulyativ vazifada qo'llangan evfemizmlardan haqiqatni to'liq yoki ochiq yoritmaslik, harakatlarni boshqarish maqsadida foydalaniladi. Yana bir jihati bunday evfemizmlar orqali tinglovchining yoki o'quvchining ongiga emas, sezgilariga ta'sir qilish ko'zlanadi. Biz o'zbekcha publitsistik matnlarda manipulyativ maqsadga yo'naltirilgan evfemizmlarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgiladik:

1. Asl vaziyatni, holatni yashirish. Manipulyativ evfemizmlar ko'pincha haqiqatni noaniq yoki qabul qilishga osonroq shaklda taqdim etadi. Masalan, "ishdan bo'shatish", "ishchilar sonini qisqartirish" o'rniga *kadrlar optimizatsiyasi*, *xodimlar sonini muvofiqlashtirish* kabi iboralar qo'llanishi, aslida bir-ikkita emas, ko'proq kishini ishdan bo'shatish haqida gap ketayotganini pardalab ifodalaydi.

³⁶ "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil, 255-son. – B. 3.

³⁷ "Ma'rifat va ta'lim" gazetasi, 2022-yil, 14-son. – B. 5.

Shunday vazifada qo‘llanadigan evfemik ifodalarga misol sifatida quyidagi publitsistik matnni keltirish mumkin: “*Rossiya Prezidenti Vladimir Putin mamlakat mudofaa vaziri Sergey Shoygu va qurolli kuchlari Bosh shtabi boshlig‘i Valeriy Gerasimovga **tiyib turuvchi kuchlarni shay holatga keltirishga buyruq berdi***”³⁸. Bunda *tiyib turuvchi kuch* deya evfemiklashtirilgan ifoda, aslida “atom bombasi” ma’nosini anglatadi. Bunda bir qarashda haqiqiy ma’noni evfemik ifoda orqali anglab olish qiyin, sababi *tiyib turuvchi kuch* sifatida boshqa himoya vositalarini ham tushunish mumkin. Siyosiy ma’lumotga ega o‘quvchilargina ushbu evfemik ifodaning yashirin ma’nosini uqa oladi.

2. Salbiy tasavvur uyg‘otishdan qochish. Masalan, xalqaro publitsistika tajribasida urushda tinch aholining halok bo‘lishini *qo‘shimcha zarar* deb atash tajribasi bor. O‘zbek publitsistikasida ham harbiy mavzularga oid axborotlarda aynan salbiy tasavvur uyg‘otmaslikka urinish jihati ajralib turadi. Sababi mamlakatimizning davlatlar yoki mintaqalararo kelishmovchiliklarga munosabati bir necha o‘n yillar davomida betaraflik tamoyiliga asoslangan. Ayni jihat publitsistik matnlarda bu mavzuda evfemik ifodalarning qo‘llanishiga ta’sir qilgan.

Fuqarolik urushlariga oid publitsistik matnlarda ham shu kabi evfemik ifodalar qo‘llanadi. Masalan: “*Livanda nega **namoyish** boshlandi?*” Bu misolda *namoyish, namoyishchilar* evfemizmlarini “qo‘zg‘olon” “qo‘zg‘olonchi” so‘zlari bilan almashtirish mumkin: “*Livan poytaxti Bayrutdagi asosiy yo‘l o‘tkazgichlar, tunnellar va xiyobonlar ko‘cha faollari tomonidan to‘sisib qo‘yildi. **Namoyishchilar** yo‘lni to‘sisib uchun yonayotgan shinalar va chiqindi qutilaridan foydalangan. Qayd etilishicha, **namoyishlar** milliy valyuta – livan lirasining qadrsizlanishi ortidan yuzaga kelgan. Chunki milliy valyutaning pasayishi oziq-ovqat, benzin, yonilg‘i mahsulotlari va eng zarur tovarlar narxining oshishiga ta’sir qiladi. Livanda bo‘lib o‘tgan **namoyishlar** davlat idoralari, banklar, xususiy firmalar va savdo markazlarining faoliyatiga to‘sqinlik qilgan, maktablar va boshqa ta’lim muassasalari yopilgan*”³⁹. Aslida *qo‘zg‘olon* manzarasi aks ettirilayotgan bo‘lsa-da, matnda bu *namoyish, namoyishchi* so‘zlari bilan ifodalangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga ko‘ra, “Qo‘zg‘olon – biror ijtimoiy tuzum, hukmron sinf va shu kabilarga qarshi ko‘tarilgan ommaviy harakat; isyon, g‘alayon”⁴⁰. *Namoyish* esa “biror marosim yoki bayram munosabati bilan o‘tkaziladigan, biror maqsad bilan uyushtiriladigan ommaviy yurish, harakat”⁴¹. Demak, bu misolda salbiy munosabat uyg‘otishdan qochish vazifasida evfemik ifoda qo‘llangan.

3. Javobgarlikni kamaytirish yoki chalg‘itish. Siyosiy nutqda yoki tijorat reklamasida foydalaniladi. Masalan, *solliq yukini optimizatsiya qilish* “solliqni noma’lum miqdorda oshirish” tushunchasidagi keskinlikni yumshatadi: “***Solliqlar optimizatsiyasi** orqali ichki biznes va eksport – muammolarning asosiy yechimi mana shu*”⁴². Yoki “***Zo‘ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakat***”⁴³ deb

³⁸ <https://kun.uz/10211024?q=%2F10211024>

³⁹ “Ishonch” gazetasi, 2023-yil, 75-son. – B. 4.

⁴⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 355.

⁴¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 332.

⁴² <https://daryo.uz/2017/10/09/nega-naqd-chet-el-valyutasini-sotishga-shoshmaslik-mumkin>

nomlangan publitsistik matnda “kurash” tushunchasi *harakat* tarzida evfemiklashtirilgan. Kurashishga qaratilgan bu ijtimoiy aksiyani *harakat* tarzida ifodalash jarayon keskinligini bir qadar pasaytiradi. Ya’ni “kurash” deyilganida keskin va aniq harakatlar, chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tushunilsa, *harakat* so’zi mavhumroq jarayonlarni, majburiyatlarni to’liq bajarmaslikni anglatadi. Shuningdek, ushbu misolda zo’*ravonlik* evfemik ifodasi asosiy matnda ochiqlangan “jinsiy, jismoniy va ruhiy tajovuz” ma’nolarini umumlashtirgan holda qo’llangan. Ba’zi o’rinlarda bu ma’noni qo’llab-quvvatlash uchun “vahshiylik qurboni” birikmasi ham ishlatilgan. Ya’ni zo’*ravonlik qurboni* – *vahshiylik qurboni*.

“Gazeta matnlarida evfemiya va disfemiya” mavzusida tadqiqot olib borgan T.V.Boyko o’z ishida gazeta matnlarida uchraydigan evfemizmlarni ikki guruhga ajratgan: siyosiy jihatdan tahrirlangan evfemizmlar va “doublespeak” guruhiga kiruvchi evfemizmlar⁴⁴. “Doublespeak” voqelikni aslida boshqacha tasvirlashni, shunday xususiyatli birliklarni qo’llashni anglatadi. Ularni boshqa evfemizmlardan ajratib turadigan jihat hukumat, harbiy tuzilmalar va korporativ institutlar tomonidan ataylab ishlatilishidir⁴⁵. T.Boykoning fikricha, “Agar evfemizm boshqalarning his-tuyg’ularini hurmat qilish yoki ma’lum bir jamiyat madaniyatida qabul qilingan tabularni ifodalash uchun ishlatilsa, bu “doublespeak” emas. Biroq agar evfemizm chalg’itish uchun ishlatilsa, aynan “doublespeak”. Bunday evfemizmlar aldash, yoqimsiz narsani yashirish va voqelik haqidagi tasavvurimizni o’zgartirishga qaratilgan bo’ladi”⁴⁶.

Ikkinchı bobning “*Publitsistik matnlarda evfemik ifodalarning estetik vazifada namoyon bo’lishi*” deb nomlangan uchinchi faslida o’zbek publitsistik matnlarida evfemik ifodalarning estetik, badiiy bo’yoqdorlik vazifasida qo’llanish maqsadlari tahlil qilingan. Ma’lumki, evfemizmning asosiy vazifasi – yumshatish. Muqobil nomlar esa, odatda, so’zlovchi ma’lum bir so’z (yoki ibora) qo’pol yoki nomaqbul deb hisoblagan va suhbatdoshga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan hollarda qo’llanadi. Shu ma’noda badiiy-publitsistik matnlarda evfemizmlar mazmunga “adabiy” shakl beradi, yumoristik ruh yoki satirik bo’yoq baxsh qiladi va kuchaytiradi, qahramonlarni tavsiflaydi hamda yorqin badiiy obrazlar yaratadi.

